


IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK



2022- yil yanvar-iyun



2022- yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi


Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Dastlabki ma'lumotlar

- 2022- yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi 65,9 % ni tashkil etdi.
- Kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga 11,5 birlikni tashkil qildi.
- 2022- yilning yanvar-iyunida 3 354 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,8 foizga ko'p.



2022- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 1 053 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1 026 ta, sanoatda 591 ta, qurilishda 140 ta, yashash va ovqatlanishda 99 ta, tashish va saqlashda 86 ta tashkil etilgan.

Yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2021- y.	2022- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	34 579	37 615	3 036
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	3 054	3 354	300
<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushlari:</i>				
YAHM	%	69,9	65,9	-4,0
Sanoat	%	24,3	19,5	-4,8
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	98,8	98,6	-0,2
Investitsiya	%	69,4	52,7	-16,7
Qurilish	%	96,7	97,0	0,3
Chakana savdo	%	89,3	86,9	-2,4
Xizmatlar	%	66,7	67,1	0,4
Yuk tashish	%	93,1	94,2	1,1
Yuk aylanmasi	%	71,6	67,7	-3,9
Yo'lovchi tashish	%	97,7	98,0	0,3
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,9	96,8	0,9
Eksport	%	35,5	39,2	3,7
Import	%	15,9	9,8	-6,1



2022- yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da


YAHM 65,9%	Savdo 86,9%
Sanoat 19,5%	Qurilish 97,0%
Investitsiya 52,7%	Eksport 39,2%
Xizmatlar 67,1%	Import 9,8%

**Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	(+;-)
Andijon viloyati	3 054	3 354	300
<i>shaharlar:</i>			
Andijon sh.	800	571	-229
Xonobod sh.	67	45	-22
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	141	166	25
Andijon	264	286	22
Baliqchi	217	333	116
Bo'ston	115	114	-1
Buloqboshi	116	104	-12
Jalaquduq	111	146	35
Izboskan	139	208	69
Ulug'nor	59	61	2
Qo'rg'ontepa	147	198	51
Asaka	257	264	7
Marhamat	128	169	41
Shahrixon	196	280	84
Paxtaobod	153	210	57
Xo'jaobod	144	199	55



2022- yil yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da



2022- yilning yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Andijon shahri – 17,1 %, Baliqchi tumani – 9,9 %, Andijon tumani – 8,5 %, Shahrixon tumani – 8,3 %, Asaka tumani – 7,9 %, Paxtaobod tumani – 6,3 %, Izboskan tumani – 6,2 % va Xo'jaobod tumani – 5,9 % ga tegishli.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	farqi (+;-)
Jami	3 054	3 354	300
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	240	1 026	786
Sanoat	854	591	-263
Qurilish	218	140	-78
Savdo	1171	1053	-118
Tashish va saqlash	86	86	-
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	129	99	-30
Axborot va aloqa	75	62	-13
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	74	80	6
Boshqa faoliyat turlari	207	217	10



***Ma'lumot uchun:** 2022- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:*



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi (+;-)
Andijon sh.	800	571	-229
Baliqchi	217	333	116
Andijon	264	286	22
Shahrixon	196	280	84
Asaka	257	264	7
Paxtaobod	153	210	57
Izboskan	139	208	69
Xo'jaobod	144	199	55

2022- yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahrida - 571 tani tashkil etdi.






2022- yil yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 11,5 birlikni tashkil etdi.



Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga ko'ra*




2022- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida 24,9 birlik, Xonobod shahrida 17,5 birlik, Xo'jaobod tumanida 14,0 birlik, Bo'ston tumanida 12,7 birlik, Ulug'nor tumanida 11,0 birlik, Asaka tumanida 10,5 birlik, Baliqchi tumanida 9,8 birlikni tashkil etgan. Buloqboshi tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 7,4 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2022- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2022- yilning yanvar-iyunida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan kichik biznes subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *



Faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)

Eng yuqori ko'rsatkich

- Andijon shahri
- 24,9 birlik

O'rtacha ko'rsatkich

- Ulug'nor tumani
- 11,0 birlik

Eng past ko'rsatkich

- Buloqboshi tumani
- 7,4 birlik

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, (yanvar-iyun holatiga ko'ra, % da)

2022- yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi 65,9 % ni tashkil qildi. (2021- yilning yanvar-iyunida 69,9 %).

YAHMning o'tgan yilga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining ko'payishi bilan izohlanadi.

65,5%

2020- y.

69,9%


2021- y.

65,9%

2022- y.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Andijon viloyati	19,5	97,0	67,1	52,7
<i>shaharlar:</i>				
Andijon sh.	19,6	94,0	67,1	48,4
Xonobod sh.	33,3	100,0	83,6	92,3
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko‘l	58,3	100,0	73,3	41,3
Andijon	83,6	98,9	71,6	56,1
Baliqchi	45,5	100,0	61,6	69,0
Bo‘ston	59,6	100,0	82,6	61,2
Buloqboshi	100,0	100,0	69,1	97,0
Jalaquduq	55,3	84,6	80,0	82,4
Izboskan	40,8	100,0	66,2	85,0
Ulug‘nor	76,7	89,1	80,5	86,2
Qo‘rg‘ontepa	44,2	100,0	52,5	83,2
Asaka	2,0	100,0	52,5	13,0
Marhamat	40,6	100,0	76,2	56,4
Shahrixon	82,3	100,0	59,8	37,0
Paxtaobod	36,9	100,0	65,2	89,1
Xo‘jaobod	67,5	100,0	60,7	52,1

Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi eng ko‘p:

Sanoatda-

Buloqboshi (100,0 %),
Andijon (83,6 %),
Shahrixon (82,3 %),
Ulug‘nor (76,7 %),
Xo‘jaobod (67,5 %),
Bo‘ston (59,6 %)
Oltinko‘l (58,3 %)


Qurilishda-

Buloqboshi (100,0 %),
Shahrixon (100,0 %),
Xo‘jaobod (100,0 %),
Marhamat (100,0 %),
Paxtaobod (100,0 %),
Izboskan (100,0 %)
Asaka (100,0 %)


Xizmatlarda-

Xonobod sh (83,6 %),
Bo‘ston (82,6 %),
Ulug‘nor (80,5 %),
Jalaquduq (80,0 %),
Marhamat (76,2 %),
Oltinko‘l (73,3 %)
Andijon (71,6 %)

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 222,1 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 39,2 foizini tashkil etdi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da




2022- yil yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buloqbohi tumanida - 100 %, Ulug'nor tumanida – 100,0 %, Andijon tumanida – 88,7 %, Xonobod shahrida – 79,7 %, Shahrixon tumanida – 76,1 %, Bo'ston tumanida – 70,5 %, Izboskan tumanida – 64,1 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida – 10,2 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 149,8 million AQSH dollarini yoki umumiy import hajmining 9,8 foizini tashkil etdi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2022- yil yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Buloqbooshi tumanida - 100 %, Jalaquduq tumanida - 97,8 %, Bo'ston tumanida - 96,9 %, Qo'rg'ontepa tumanida - 93,6 %, Ulug'nor tumanida - 82,5 %, Marhamat tumanida - 81,6 % va Andijon tumanida - 66,4 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida - 1,0 % ni tashkil etdi.




2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 696,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2022- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, (mlrd. soʻm)




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (678,7 mlrd. soʻm), Xoʻjaobod tumani (601,1 mlrd. soʻm), Shahrixon tumani (495,9 mlrd. soʻm), Qoʻrgʻontepa tumani (344,8 mlrd. soʻm) va Andijon tumani (318,3 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keladi. Boʻston tumanida (92,1 mlrd. soʻm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past boʻlib qolmoqda.



2022- yil yanvar- iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 19,5 foizni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-iyun holatiga tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Buloqboshi (100,0 %), Andijon (83,6 %), Shahrixon (82,3 %), Ulug'nor (76,7 %), Xo'jaobod (67,5 %), Bo'ston (59,6 %) va Oltinko'l (58,3 %) tumanlari tashkil etdi. Asaka tumanida (2,0 %) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 8 001,4 mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 86,9 foizini tashkil etdi. O‘shish sur‘ati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,9 foizni tashkil qildi.



2022- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘shish sur‘ati




Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (1 976,0 mlrd. so‘m), Shahrixon tumani (1 057,7 mlrd. so‘m), Asaka tumani (788,4 mlrd. so‘m) va Qo‘rg‘ontepa tumani (545,5 mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keladi.



2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 3 000,2 mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 97,0 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 105,8 foizni tashkil qildi.




2022- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (1 016,1 mlrd. so'm), Andijon tumani (276,5 mlrd. so'm), Shahrixon tumani (249,4 mlrd. so'm), Oltinko'l (182,6 mlrd. so'm) hamda Paxtaobod tumanlarida (162,7 mlrd. so'm) qayd etildi.


2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 402,2 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 67,1 foizini tashkil qildi. 2021- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 111,6 foizga oʻsdi.



2022- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʼati




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Andijon shahri (1 850,8 mlrd. soʻm), Andijon tumani (330,2 mlrd. soʻm), Izboskan tumani (273,7 mlrd. soʻm), Paxtaobod (271,8 mlrd. soʻm) va Shahrixon (269,5 mlrd. soʻm) tumani hissasiga toʻgʻri keladi.




2022- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 94,2 foizni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,7 foizni tashkil qildi.


2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 67,7 foizni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,7 foizni tashkil qildi.



2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,7 foizni tashkil etib, bu esa 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 101,0 foizga ko'payishiga olib keldi.




2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,8 foizni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 101,3 foizga ko'payish kuzatildi.






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjud hamda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 966 ta respondentlar ishtirok etdi.



2022- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi savdoda – 36,7 % (355 ta), xizmatlar sohasida – 25,2 % (242 ta), sanoatda – 21,9 % (212 ta), qurilishda – 8,9 % (86 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 7,3 % (71 ta)ni tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.



2022- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2022- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning II choragida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra 2022- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida 39,2 % ni, savdo sohasida 35,8 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 33,8 % ni va sanoat sohasida 31,1 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilish sohasida 68,6 % ni, sanoat sohasida 60,4 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 57,7 % ni va savdo sohasida 56,9 % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilish sohasida 10,5 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 8,5 % ni, sanoat sohasida 8,5 % ni va savdo sohasida 7,3 % ni tashkil etdi.



2022- yilning II- choragida tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy vaziyatini baholash, % da


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo


Xizmatlar



2022- yilning II choragida tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin uch oyidagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini yaxshilanishga ishongan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida 45,9 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 45,0 % ni, savdo sohasida 44,8 % ni va sanoat sohasida 41,5 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilish sohasida 60,5 % ni, sanoat sohasida 53,3 % ni, savdo sohasida 49,3 % ni va xizmatlar sohasida 49,1 % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy vaziyatni yomonlashishiga ishongan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 9,9 % ni, qurilish sohasida 8,1 % ni, savdo sohasida 5,9 % ni va sanoat sohasida 5,2 % ni tashkil etdi.



2022- yilning II choragida tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oyidagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar

